

## MAKTABDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MILLIY MADANIYAT VA QADRIYATLARNI INTEGRATSIYA QILISH

**Burieva Pokiza**

**Yo'nalish: Ingliz tili o'qitish metodikasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.17454109>**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada ingliz tili ta'limida milliy madaniyat va qadriyatlarni integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritiladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi, o'quv jarayonidagi ahamiyati, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan samarali metodlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada o'zbek xalqining madaniy merosini ingliz tili ta'limi orqali yosh avlod ongiga singdirishning pedagogik imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, milliy madaniyat, qadriyatlar, integratsiya, ma'naviy tarbiya, ta'lim jarayoni, interkultural kompetensiya.

### **Kirish**

Bugungi globalashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish har bir jamiyatning intellektual va madaniy rivojlanishining ajralmas qismiga aylangan. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishning sifatini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida chet tillarini o'qitishda milliy o'zlikni saqlash, o'z xalqining qadriyatlari va an'alarini yosh avlod ongiga singdirish muhimligini alohida ta'kidlab kelmoqda. Chet tilini o'qitish jarayonida milliy madaniyatni integratsiya qilish nafaqat o'quvchilarning til kompetensiyasini, balki ularning ma'naviy va madaniy dunyoqarashini boyitadi.

### **Asosiy qism**

#### **1. Nazariy asoslar**

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni alohida holda o'rganish imkonsiz. Til — bu madaniyatni ifodalovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi vositadir. Kramsch (1998) o'z tadqiqotlarida tilni o'rganish madaniyatni o'rganish bilan birga olib borilishi lozimligini ta'kidlaydi. Byram (1997) esa madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish chet tili o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri ekanini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili darslarida milliy madaniyat elementlarini qo'llash o'quvchilarning til va madaniyat haqidagi tasavvurlarini uyg'unlashtiradi.

#### **2. Metodik yondashuvlar va amaliy yo'nalishlar**

Maktab ta'limida ingliz tili darslarida milliy madaniyatni integratsiya qilish bir necha metodik yo'llar orqali amalga oshiriladi:

- Mavzuli integratsiya – ingliz tili dars mavzularini o'zbek xalqining urf-odatlarini, bayramlari, milliy kiyimlari, xalq og'zaki ijodi bilan bog'lash. Masalan, 'Traditions', 'National food', 'Famous people' kabi mavzularda milliy misollarni ingliz tilida tahlil qilish.

- Madaniyatlararo taqqoslash – ingliz va o'zbek xalqlari madaniyatlarini taqqoslash orqali tolerantlik va o'zaro hurmatni shakllantirish. Bu usul o'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantiradi.

- Loyihaviy yondashuv – 'My country – my pride', 'Uzbek hospitality', 'Our national clothes' kabi mini-loyihalar tayyorlash orqali o'quvchilarda ijodkorlik, jamoada ishlash va milliy iftixorni mustahkamlash.

- Interaktiv metodlar – rolli o'yinlar, intervyular, maqol va hikmatlarni ingliz tiliga tarjima qilib muhokama qilish orqali dars jarayonini jonlantirish.

- Axborot texnologiyalaridan foydalanish – videolar, onlayn taqdimotlar, milliy qo'shiqlar va virtual ekskursiyalar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish.

### 3. Amaliy natijalar

Tadqiqotlar va tajriba-sinov darslari shuni ko'rsatadiki, ingliz tili ta'limiga milliy madaniyatni integratsiya qilish o'quvchilarning o'z tiliga, madaniyatiga va milliy qadriyatlariga nisbatan hurmatini oshiradi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- lingvokulturologik savodxonlik;
- milliy o'zlikni anglash va ifoda etish;
- madaniyatlararo muloqot madaniyati;
- tolerantlik va ijobiy milliy g'urur hissi.

Shu bilan birga, ingliz tili darslari o'quvchilarni nafaqat global dunyo bilan muloqotga tayyorlaydi, balki ularni o'z milliy merosining elchilariga aylantiradi.

#### Xulosa

Milliy madaniyatni ingliz tili o'qitish jarayoniga integratsiya qilish bir necha jihatlarni qamrab oladi. Birinchidan, dars jarayonida o'zbek xalqining boy madaniyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlari bilan bog'liq materiallardan foydalanish o'quvchilar uchun ona tilidan chet tilga o'tishda yanada qulay muhit yaratadi. Masalan, ingliz tilidagi matnlarni o'qitishda faqatgina G'arb madaniyati bilan bog'liq materiallarga tayanish o'rniga, o'zbek xalq ertaklari, xalq maqollari va mumtoz adabiyot namunalarini ingliz tiliga tarjima qilib o'rganish samarali usul bo'lib xizmat qiladi. Bu usul orqali o'quvchilar nafaqat ingliz tilini o'rganadilar, balki o'z milliy meroslari bilan faxrlanish, uni xalqaro miqyosda targ'ib qilishga ham o'rganadilar.

Ikkinchidan, ingliz tilini o'qitish jarayonida milliy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni integratsiya qilish ma'naviy tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy shunday degan: "Tilga e'tibor – millatga e'tibor." Bu fikr zamirida ona tilini qadrlash bilan chet tilini o'rganish o'rtasidagi bog'liqlik yotadi. O'quvchilar ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatlarning madaniyatini o'rganish jarayonida o'z milliy qadriyatlarini unutmasligi lozim. Shu sababli, dars jarayonida o'zbek xalqining me'yor va urf-odatlariga oid mavzularni ingliz tilida muhokama qilish orqali o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin.

Uchinchidan, ingliz tili darslarida milliy madaniyat va qadriyatlarni integratsiya qilish o'quvchilarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. Bugungi kunda xalqaro muloqotning samarali vositalaridan biri bu millatlararo tushunishni shakllantirishdir. Masalan, o'quvchilar o'zbek milliy bayramlari – Navro'z, Mustaqillik kuni, Qurbon hayiti kabi tadbirlarni ingliz tilida taqdimot qilish orqali nafaqat o'z bilimlarini mustahkamlashadi, balki madaniy diplomatiya ko'nikmalarini ham shakllantiradilar. Shu tariqa, ular chet elliklar bilan muloqotda bo'lganda o'z madaniyatini to'g'ri va aniq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili ta'limida milliy madaniyat va qadriyatlarni integratsiya qilish o'quvchilarda nafaqat lingvistik, balki madaniy va ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu yondashuv yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, shu bilan birga ochiq fikrli va madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxs sifatida tarbiyalash

imkonini beradi. Shunday qilib, ingliz tili darslari yoshlarning nafaqat bilimini, balki qalbini ham boyituvchi, milliy g'ururni shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy vositadir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'qitishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 19-may.
4. Karimova N., To'xtayeva D. Ingliz tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Byram, M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
6. Kramersch, C. Language and Culture. — Oxford: Oxford University Press, 1998.
7. Xodjiev N. Milliy qadriyatlar asosida chet tillarini o'qitishning samarali usullari. // "Til va madaniyat" ilmiy jurnali, 2022, №3.